



**TEXNIK TOPSHIRIQ**  
1. Umumiy qoidalar

**1.1. Ishning mavzusi:**

- Mirobod tuman maktabgacha talim bo'limi asaruvchilari barcha DMTT'larga Sanitar-gigiyenik vositalari va Tovar moddiy zaxiralari xarid qilish.

**1.2. Ishlarning maqsadi:**

- Mirobod tuman maktabgacha talim bolimi asaruvchilari barcha DMTT'larga Sanitar-gigiyenik vositalari va Tovar moddiy zaxiralari xarid qilish.

**1.3. Moliyalashtirish manbasini:**

- Mahalliy byudjet mablag'lari.

**1.4. DMTT'larga zarur bo'lgan tovarlar tavsifi:**

Xarid qilinadigan tovarlar nomi	birlik	soni
Xojalik sovuni	dona	4200
Kir yuvish kukuni	kg (30)	170
Sovun yoli qol yuvish uchun gel	dona	7270
Oqartiruvchi yuvish vositasi	dona	2310
Hojatxona yuvish vositasi	dona	3680
Yogisizlantiruvchi vosita	dona	3140
Kochma kvarts lampasi	dona	52
Dazmol	dona	46
Gilam	K.v.m	1628
Hovli uchun metal axlat qutisi	dona	85

**1.5. Ishlarni boshlanishi va tugatilishi:**

- Boshlanishi: « » 2022 y.  
- Tugatilishi: « » 2022 y.

**1.6. Yetkazib berish vaqti:**

- Mahsulotlarni yetkazib berish xaftaning ish kunlarida ertalab soat 08-00 dan to kech 16-30 gacha bo'lgan vaqtda amalga oshiriladi.  
- Yetkazib berish joyi - DMTTlar grafik asosida

**2. Ishlarni bajarish uchun talablar**

2.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, me'yoriy huquqiy qoidalarga muvofiq mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli yetkazib berilishini ta'minlash;

**3. Ishlarni topshirish-qabul qilish tartiblari**

3.1. Ijrochi ushbu "Texnik topshiriq" da nazarda tutilgan xizmatlarni shaxsan o'zi ko'rsatishi shart.  
3.2. Ijrochi ishlarni yakunlash muddati tugashidan yetti ish kuni oldin (ishni yakuniy qabul qilish uchun) ishlarni topshirish to'g'risida buyurtmachi xabardor qilishi shart. Bajarilgan ishlarni qabul qilish ob'ektda Buyurtmachi va ijrochining vakillaridan iborat komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Ishlarni qabul qilishda bajarilgan ishlarining sifati, xajmlari va miqdorlari tekshiriladi. Ijrochi bajarilgan ishlar uchun topshirish-qabul qilish dalolatnomalarni, xisobvaraq-fakturalarni tayyorlaydi.

3.3. Mahsulot yetkazib berilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi va unga hisobot hujjatlarini ilova qiladi.

3.4. Yetkazib berilgan mahsulotlarni qabul qilish dalolatnomasi komissiya qarorini (ijobiy yoki salbiy) aks ettiradi. Agar komissiya salbiy qaror qabul qilsa, mahsulot o'z vaqtida yetkazib berilmagan deb hisoblanadi.

3.5. Mahsulotni sifatidan qoniqmagani Buyurtmachi dalolatnomani olgan paytdan boshlab 3 kun ichida Ijrochiga ishlarni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin. Keyingi harakatlar tartibi shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.

3.6. Mahsulotni yetkazib berish uchun kafolat muddati:

- Yetkazib berilgan mahsulot uchun kafolat muddati taraflar tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab kamida bir yil bo'lishi kerak.

**4. Ishlarni bajarilishi ustidan nazorat qilish tartibi**

4.1. Ish xajmi, uning bajarilishi muddati va sifatiga rioya qilinishining texnik nazoratini Buyurtmachingin ishchi guruhi amalga oshiradi.

Shartnoma bo'yicha mahsulotlarni yetkazib berish muddati 30 kuni tashkil etadi.

**5. To'lovlar tartibi va hisob-kitoblar**

5.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaga muvofiq so m.shu jumladan, oldindan to'lov tartibida mazkur summaning 30 foizini so'm miqdorida to'laydi.

Haqiqiy bajarilgan ish uchun keyingi to'lov Buyurtmachi va ijrochi imzolagan qabul qilish dalolatnomasi asosida, hisobvaraq-fakturalarni taqdim etgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

5.2. To'lov milliy valyuta "so m" da pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.



“TASDIQLAYMAN”  
Mirobod tumani MTB mudiri-  
Xarid komissiyasi raisi  
R.Z. Aydinov

Mirobod tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining extiyollari uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha Xarid komissiyasi" ning yig'ilishi  
BAYONINI

Toshkent shahri

2022 yil “ ”

**KUN TARTIBI:**

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RBQ-684-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2018 yil 15 maydagi 185-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH xujjatlarini tasdiqlash va xarid qilish tartib-taomillarini belgilash

(R.Z. Aydinov, A.I. Kamalov, M.A. Gafurova, N.K. Turdieva, D.K. Solieva, ...)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Xarid komissiyasi raisi R.Z. Aydinov so'zga chiqib Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (DMTT) tarbiyalanuvchilari uchun sanitar-gigiyenik vositalar va tovar-moddiy xaridlar xarid qilish lozimligini takidlab o'tdi;

Bo'lim bosh buygalteri A.I. Kamalov DMTT tarbiyalanuvchilari uchun sanitar-gigiyenik vositalari va tovar moddiy xaridlariga bo'lgan ehtiyoj va 2022 yil uchun xarajatlar smetasida tovar-moddiy xaridlar uchun ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etdi.

Bo'lim maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati boshlig'i M.A. Gafurova DMTT tarbiyalanuvchilari uchun sanitar-gigiyenik vositalari va tovar-moddiy xaridlar xarid qilish bo'yicha o'rtacha bozor narxini shakllantirish lozimligini va O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RBQ-684-son qonuniga asosan ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH orqali xarid qilinishi mumkinligini takidlab o'tdi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha Xarid komissiyasi,

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Ilovaga muvofiq DMTT tarbiyalanuvchilari uchun sanitar-gigiyenik vositalari va tovar moddiy xaridlariga bo'lgan ehtiyojlari to'g'risidagi ma'lumotlar tasdiqlansin;
2. DMTT tarbiyalanuvchilari uchun sanitar-gigiyenik vositalari va tovar moddiy xaridlarini xarid qilish bo'yicha o'rtacha bozor narxi shakllantirilsin;

3. DMTT tarbiyalanuvchilari uchun sanitar-gigiyenik vositalari va tovar moddiy xaridlarini xarid qilish uchun pudratchini ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH asosida aniqlanishi bo'yicha maxsus axborot portaliga (<http://xarid.uzex.uz>) e'lon joylashtirilsin;
4. Mazkur bayonnoma ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**KOMISSIYA RAISI:**

Bo'lim mudiri

R.Z. Aydinov

**KOMISSIYA A'ZOLARI:**

Bosh hisobchi

A.I. Kamalov

Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati boshlig'i

M.A. Gafurova

Iqtisodchi

N.K. Turdieva

34-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Davlat xaridlari va shartnomalar bo'yicha mutaxassis

D.K. Solieva